

**«UPiDEA Beeline Uzbekistan»
TANLOVINI O'TKAZISH QOIDALARI**

Toshkent sh.

Tanlovni o'tkazish qoidalari: "UPiDEA Beeline Uzbekistan" (keyingi o'rnlarda "**Qoidalalar**" deb ataladi) "UPiDEA Beeline Uzbekistan" tanlovini (keyingi o'rnlarda "**Tanlov**" deb ataladi) o'tkazish tartibini, tanlovda ishtirok etish shartlarini, shuningdek sovrinlar, ularni g'oliblarga berish tartibi va shartlarini belgilaydi.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Ushbu Qoidalarda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

- **Yakuniy tadbir**- asosiy Tanlov yakunlari bo'yicha G'oliblarni taqdirlash joyida o'tkaziladigan yuzma-yuz tadbir;
- **Kompaniyaning rasmiy sayti**- Kompaniyaning www.beeline.uzmanzilidagi rasmiy veb-sayti;
- **G'olib** - tasdiqlangan sovrinlardan birini yutgan Tanlov Ishtirokchisi;
- **Kompaniya/Tashkilotchi** – "Beeline" savdo belgisi ostida uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan "Unitel" MCHJ, Tanlov tashkilotchisi;
- **Shaxsiy ma'lumotlar**- ma'lum bir jismoniy shaxsga tegishli yoki uni aniqlash imkoniyatini beradigan elektron, qog'oz va/yoki boshqa moddiy muhitda qayd etilgan ma'lumotlar;
- **Portal**- bu Tanlov to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish, shuningdek Tanlovga ariza berish uchun mo'ljallangan axborot portali;
- **Ishtirokchi** – mazkur Qoidalarga muvofiq Tanlovda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs.

2. UMUMIY QOIDALAR

- 2.1. Tanlov har qanday sohada biznes uchun innovatsion g'oyalarni (bundan buyon matnda "**Biznes g'oyalari**" deb ataladi) taklif eta oladigan yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkaziladi.
- 2.2. Tanlovda ishtirok etish bepul va ixtiyoriydir.
- 2.3. **Tanlov o'tkaziladigan davr**: 05.05-26.06.2025
- 2.4. **Tanlov o'tkaziladigan hudud**: O'zbekiston Respublikasi.
- 2.5. **G'oliblarni taqdirlash joyi**: Yakuniy tadbir quyidagi manzilda o'tkaziladi: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100047, Buxoro ko'chasi, 1-uy yoki Tashkilotchining xohishiga ko'ra boshqa manzil.

3. ISHTIROK ETISH SHARTLARI

- 3.1. Tanlov individual ishtirokchilar uchun ham, 1 (bir) dan 3 (uch) gacha ishtirokchisi bo'lgan jamoalar uchun ham ochiq.
- 3.2. Tanlovda quyidagi talablarga javob beradigan jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin:
 - (i) Ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi akkreditatsiyalangan oliy o'quv yurtlarining amaldagi talabalari (bakalavriat, magistratura) yoki aspirantlari bo'lislari shart;
 - (ii) Ishtirokchilarning yoshi - 18 yoshdan.
- 3.3. Tanlovda ishtirok etish uchun jismoniy shaxslar Portalga quyidagi materiallarni yuklashlari shart:
 - (i) Pasport/ ID-karta nusxasi;
 - (ii) OTMdan ma'lumotnoma;
 - (iii) Tanlovda ishtirok etish uchun ariza (15 (o'n besh) slaydgacha), unda taqdimot shablonida ko'rsatilgan jihatlar aks ettirilgan bo'lishi kerak (bundan buyon matnda "**Ariza**" deb ataladi). Taqdimot shabloni Portalda mavjud.
- 3.4. Biznes-g'oya Kompaniyaning mavjud loyihalari/mahsulotlarini takrorlamasligi kerak.

4. TANLOVNI O'TKAZISH TARTIBI

- 4.1. G'oliblarni tanlash 2 (ikki) bosqichda amalga oshiriladi:

4.1.1. 1-bosqich:

- (i) Arizani to'g'ri to'ldirgan Ishtirokchilar tanlovnning uzun ro'yxatiga kiritiladi;
- (ii) Kompaniya xodimlaridan tashkil topgan hakamlar hay'ati Biznes-g'oyalarni baholaydi;
- (iii) Hakamlar hay'ati tomonidan tanlangan Biznes-g'oyalar tanlovnning qisqa ro'yxatiga kiritiladi.

4.1.2. 2-bosqich:

- (i) Kompaniya rahbariyati qisqa-ro'yxatdagi Biznes-g'oyalarni baholaydi va g'oliblarni aniqlaydi;
 - (ii) Yakuniy tadbirni o'tkazish;
 - (iii) "Tomoshabinlar olqishlari sovrini" nominatsiyasida g'oliblarni saylash uchun yakuniy tadbirda ishtirok etganlar o'rtaida interaktiv tanlovn ni o'tkazish;
 - (iv) G'oliblarni e'lon qilish va G'oliblarni mukofotlash;
- 4.2. Tanlovnning hakamlar hay'atida manfaatlar to'qnashuvi bo'lgan Kompaniya xodimlari bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 4.3. G'oliblarni e'lon qilish sanasi Portalda joylashtiriladi.
- 4.4. Biznes-g'oyalar quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:
- (i) **G'oya va innovatsiya**- taklifning o'ziga xosligi va istiqboli (1 dan 10 ballgacha);
 - (ii) **Amalga oshirish mumkinligi** -g'oyaning amaliy qo'llanilishi (1 dan 10 ballgacha);
 - (iii) **Tijorat salohiyati**- monetizatsiya qilish imkoniyati, moliyaviy foydasi va qoplanish muddati (1 dan 10 ballgacha);
 - (iv) **Taqdimot sifati**- mantiq, tuzilishi va vizual bezatilishi (1 dan 10 ballgacha);
 - (v) **Ta'siri**- Kompaniya mijozlariga va umuman jamiyatga ta'sir qilish salohiyati (1 dan 10 ballgacha).
- 4.5. Eng ko'p ball to'plagan jamoa Ishtirokchilar /individual Ishtirokchilar G'oliblar deb hisoblanadi.

5. G'OLIBLARNI TAQDIRLASH

- 5.1. Tanlovda 3 (uch) tagacha asosiy sovrinlar va 8 (sakkiz) tagacha ikkinchi darajali tomoshabinlar olqishlari sovrinlarining g'oliblari bo'lishi mumkin. Shuningdek, Tanlovda "Tomoshabinlar olqishlari sovrini" nominatsiyasida 3 (uch) gacha Ishtirokchi taqdirlanishi mumkin.
- 5.2. Tanlovnning sovrin jamg'armasi quyidagilardan iborat:
- (i) **Asosiy sovrin** — 3 (uch) dona Apple MacBook Pro 14 M4 Pro /12/16/RAM 24/512 GB Silver noutbuki;
 - (ii) **Ikkinchi darajali sovrinlar**- 8 (sakkiz) dona Apple MacBook Air 13.6-inch M3 OZU 16/256 GB Silver noutbuki
 - (iii) **Tomoshabinlar olqishi sovrini** — 3 (us) dona iPad PRO 12.9-inch (5th Generation) Wi-Fi 512 GB Space Grey.
- 5.3. G'oliblarni aniqlash natijalari yakuniy tadbirda e'lon qilinadi va Kompaniyaning rasmiy saytida, shuningdek Kompaniyaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida, Portalda e'lon qilinadi.
- 5.4. Sovrinni olish uchun Tanlov G'olib deb topilgan ishtirokchi 7 (yetti) kalendar kun ichida Tashkilotchiga quyidagi hujjatlar va ma'lumotlarning asl nuxxalarini taqdim etadi:
- 5.4.1. G'olibning pasporti yoki ID-kartasi;
 - 5.4.2. Tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limidan (pasport stoli) JShShIR ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, JShShIR raqami bo'limgan holatlar uchun esa O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi bazasidagi JShShIR raqami.

- 5.5. Agar G'olib biron bir sababga ko'ra sovrinni taqdirlash va topshirishda shaxsan ishtirok etish imkoniga ega bo'lmasa, u boshqa shaxsga (ishonchli vakilga) taqdirlash jarayonida ishtirok etish va sovrinni olishga hujjatlarni rasmiylashtirish uchun tegishli ishonchnomani rasmiylashtirishi mumkin. Bunday holda, ishonchli vakil quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:
- 5.5.1. G'olibning pasporti yoki ID-kartasining nusxasi;
 - 5.5.2. sovrinni olish va sovrinni olish bilan bog'liq hujjatlarda imzo qo'yish huquqi bilan notarial tasdiqlangan ishonchnoma;
 - 5.5.3. ishonchli vakilning pasporti yoki ID-kartasi;
 - 5.5.4. Tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limidan (pasport stoli) JShShIR ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, JShShIR raqami bo'limgan holatlar uchun esa O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi bazasidagi JShShIR raqami.
- 5.6. Quyidagi hollarda Kompaniya G'olibga sovrinni berishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi:
- G'olib yutuq haqida xabar berilgan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida Kompaniyaga murojaat qilmasa;
 - G'olib g'olibligi e'lon qilingan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida ushbu Qoidalarning 5.6 (5.7) bandida ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etmasa yoki taqdim etilgan hujjatlar ushbu qoidalar va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob bermasa;
 - G'olib sovrinni olishda imzo qo'yishdan va/yoki boshqa qonuniy ahamiyatga ega harakatlarni, shu jumladan kerakli hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortsa;
 - G'olib e'lon qilingan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida sovrinni olish to'g'risida yakuniy tadbirda qatnashmagan g'olibni xabardor qilish imkoniyati bo'lmasa - G'olibning raqami bloklangan va/yoki tarmoq doirasidan tashqarida bo'lsa yoki Kompaniyaga bog'liq bo'limgan boshqa sabablarga ko'ra g'olib telefonni ko'tarmasa va/yoki aloqaga chiqmasa.
 - Tanlovda ishtirok etish shartlarining G'olib tomonidan buzilishi aniqlansa.
- 5.7. Kompaniya sovrinlarni G'oliblarga topshirishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidida nazarda tutilgan tartibda soliqlar (shu jumladan, sovrin qiymati summasidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i) va yig'imlarni mustaqil ravishda to'laydi.
- 5.8. Sovrinni olishda G'olib barcha kerakli hujjatlarni imzolashi shart, unda G'olibning shaxsiy ma'lumotlari va sovrin to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar, shu jumladan uning QQS bilan qiymati ko'rsatiladi.
- 5.9. G'olibga sovrin G'olib barcha kerakli hujjatlarni imzolagandan so'ng beriladi.
- 5.10. Agar G'olib Toshkent shahrida emas, balki O'zbekiston Respublikasi hududidagi boshqa shaharda yashasa va yakuniy tadbirda ishtirok eta olmasa, Kompaniya sovrinni G'olibning yashash joyiga eng yaqin Kompaniyaning rasmiy ofisiga yetkazish majburiyatini oladi.

6. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH TARTIBI

- 6.1. Tanlovda ishtirok etib, Ishtirokchi o'z xohishi va manfaatlarida Tashkilotchiga ishtirok etish uchun ariza berishda taqdim etilgan Ishtirokchining Shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini bildiradi.
- 6.2. Ishtirokchi tomonidan Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik Tanlovda ishtirok etish maqsadida beriladi.
- 6.3. Ishtirokchi Shaxsiy ma'lumotlarini avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan qayta ishlashga, shu jumladan yig'ish, yozish, tizimlashtirish, toplash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (berish, kirish), shaxsiy ma'lumotlarni blokirovka qilish, o'chirish, yo'q qilishga rozilik beradi.
- 6.4. Ishtirokchi, agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqacha muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga uning o'zi bergen rozilik Ishtirokchi tomonidan Shaxsiy ma'lumotlar taqdim etilgan paytdan boshlab, qayta ishlash maqsadiga erishilgunga yoki ushbu maqsadga erishish zaruriyati yo'qolgunga qadar amal qilishini tasdiqlaydi.

- 6.5. Ishtirokchi istalgan vaqtda ushbu Qoidalarning 8-bo'limida ko'rsatilgan manzil bo'yicha Operatorga tegishli yozma bildirishnomasini yuborish orqali Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilagini qaytarib olishga haqli.

7. BOSHQA SHARTLAR

- 7.1. Tanlov Ishtirokchilari taqdim etilgan Biznes-g'oyalalar ko'rib chiqilishi va Kompaniyaning yagona xohishiga ko'ra Kompaniya tomonidan amalga oshirilishi mumkinligiga rozi bo'ladi. Shu bilan birga, Tanlov Tashkilotchisi Tanlov natijalaridan qat'i nazar, biron bir Biznes-g'oyani amalga oshirish majburiyatini olmaydi. Shu bilan birga, Ishtirokchilar o'zlarining Biznes-g'oyalarni, shu jumladan Kompaniya tomonidan eng yaxshilar qatorida tanlangan g'oyalarni mustaqil ravishda amalga oshirish huquqini saqlab qoladi. Kompaniya ularni keyinchalik amalga oshirish uchun javobgar bo'lmaydi. Tanlovda qatnashish fakti Ishtirokchilar va Tashkilotchi o'tasida hech qanday huquqiy yoki moliyaviy majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi. Tashkilotchi tomonidan Biznes-g'oya amalga oshirilgan taqdirda, Ishtirokchilar hech qanday kompensatsiya, mukofot, boshqa to'lovlar, hammualliflikni tan olishni talab qilishga haqli emas, shuningdek ushbu Biznes-g'oyaga asoslangan biznesda hech qanday huquq, ulush yoki boshqa manfaatlarga ega bo'lmaydi.
- 7.2. Tanlovda ishtirok etib, Ishtirokchi:
- (i) ushbu Qoidalalar bilan to'liq tanishib chiqqanligini va rozilagini tasdiqlaydi;
 - (ii) foto va video suratga olishda ishtirok etishga, shuningdek, Operatorning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali G'olibning rasmlarini keyinchalik ommaga chiqarishga va tarqatishga rozilagini tasdiqlaydi.
- 7.3. Tashkilotchi ushbu Qoidalarga o'zgartirish kiritish huquqini, shuningdek har qanday bosqichda Tanlovni to'xtatib qo'yish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.4. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza berish fakti ushbu Qoidalarga to'liq rozilikni anglatadi.
- 7.5. Sovrin G'olibning nomiga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi, bunda soliqlarni Kompaniya qoplaydi, qolgan xarajatlarni G'olibning o'zi to'laydi.
- 7.6. Agar G'oliblar biron sababga ko'ra sovrinlarni talab qilmasa yoki rad etsa, talab qilinmagan sovrin Kompaniyaga tasarrufida qoladi.
- 7.7. Agar G'olib ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha talab va shartlarni bajarmagan bo'lsa, Kompaniya G'olibga sovrin berishni rad etish huquqiga ega.
- 7.8. Kompaniya quyidagilar uchun javob bermaydi:
- sovrinlarni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni/hujjatlarni Ishtirokchilarning o'zlarining aybi bilan yoki ishtirokchining va/yoki Kompaniyaning irodasiga bog'liq bo'limgan boshqa sabablarga ko'ra olmaslik/o'z vaqtida olmaslik;
 - Ishtirokchilar ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan talablarni bajarmaganliklari (o'z vaqtida bajarmaganliklari);
 - Ishtirokchilar Sovrinlarni talab qilmagan yoki ulardan voz kechgan taqdirda ularni olmaslik;
 - uchinchi shaxslar va/yoki yengilmas kuch holatlari aybi bilan G'oliblarga sovrinlarni topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaslik.
- 7.9. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak. Nizo kelib chiqqan kundan boshlab 60 (oltmis) kalender kun ichida tinch yo'l bilan kelishishning iloji bo'limgan taqdirda, nizo Toshkent shahar Mirobod tumanlararo fuqarolik ishlari sudida ko'rib chiqilishi lozim.
- 7.10. Sovrinning nuqsonlari yoki boshqa zavod nosozliklari aniqlangan taqdirda, sovrin topshirilgan va G'olib tomonidan topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida G'olib Kompaniyaning bosh ofisiga murojaat qilishi kerak. Sovrin topshirilgandan keyin sovrin uchun belgilangan foydalanish yoki saqlash qoidalari buzilganligi sababli sovrinda yuzaga kelgan kamchiliklar yoki uchinchi shaxslarning harakatlari, yoki yengilmas kuch holatlari uchun Kompaniya javobgar bo'lmaydi.
- 7.11. Tanlov haqidagi ma'lumotlar Portalda mavjud. Kompaniya o'zi tanlagan ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

- 7.12. Kompaniya ushbu shartlarda yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarida ko'rsatilgan hollardan tashqari, Tanlov Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarga kirmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.13. G'olib tomonidan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan paytdan boshlab 90 (to'qson) kalendar kun ichida sovrinlarni berish huquqini Kompaniya o'zida saqlab qoladi.